

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491

ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot" dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент кафедры; Тю Константин Геннадьевич , соискатель; Кучаров Абдор Сабиржанович , профессор кафедры	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot" ning o'rni	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizaqovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsenti v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. , kafedra assistenti	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinova , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash ..	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturopov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeidova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	



Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	
Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar.....	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi , Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna , PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova , talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна , к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development.....	304
Vafoyeva Dilafuz , Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari.....	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna , tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna , magistrant	
Ko'zi o'z shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li , tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	334
Джурбаев Отабек Джурбаевич , доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich , magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли , студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна , научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna , Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari.....	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li , kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna , tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации	373
Д. К. Исмаилов , кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo , PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich , mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli , Teacher	



“YASHIL IQTISODIYOT” DAN “YASHIL TARAQQIYOT” SARI



Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish instituti t.f.n., dotsent

Annotatsiya: Maqolada insoniyat oldida turgan global ekologik muammolar, “Yashil iqtisodiyot”ning mazmun, mohiyati va bu borada O'zbekistonda qabul qilingan hujjatlar, xorijiy tajribalar hamda ta'lim tizimida olib borilayotgan ishlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: “Yashil iqtisodiyot”, “yashil texnologiyalar”, “Yashil taraqqiyot”, “Yashil makon”, Koronavirus pandemiyasi, tabiiy resurslar, muqobil energetika, atrof-muhit iqtisodiyoti, ekologiya.

Аннотация: В статье описаны глобальные экологические проблемы, стоящие перед человечеством, смысл и сущность “Зеленой экономики” и документы, принятые в Узбекистане по этому поводу, зарубежный опыт, работа, проводимая в системе образования.

Ключевые слова: “Зеленая экономика”, “Зеленые технологии”, “Зеленое развитие”, “Зеленое пространство”, пандемия коронавируса, природные ресурсы, альтернативная энергетика, природоохранная экономика, экология.

Abstract: The article describes the global environmental problems facing mankind, the meaning and essence of the “Green Economy” and the documents adopted in Uzbekistan in this regard, foreign experiences, and the work being carried out in the educational system.

Key words: “Green economy”, “green technologies”, “Green development”, “Green space”, coronavirus pandemic, natural resources, alternative energy, environmental economy, ecology.

KIRISH

Bugun insoniyat yangi tahdidlar oldida turibdi. Yer shari aholisi ko'payishda davom etyapti, tabiiy resurslar zaxirasi esa muttasil ravishda qisqarmoqda. Bunday disproportsiya dunyo mamlakatlarini tang ahvolga solib qo'yayotgani bor gap. Avvalo, global ekologik muammolarning keskinlashuvini kuzatyapmiz. Ekspertlar vaziyatni o'nglash uchun jahon iqtisodiyotida “yashil taraqqiyot” tamoyillarini joriy etish zarurligini ta'kidlamogda.

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko'plab boshqa sohalaridagi g'oyalarni o'z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog'liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil siyosat bilan bog'liq iqtisodiyotni o'z ichiga oladi.

“Yashil iqtisodiyot” bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, “yashil iqtisodiyot” deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o'sish va kambag'allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Uzoq muddatli istiqbolli “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish modelini tuzishda yo'nalishlar bo'yicha (xalqaro talablarga muvofiq) statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish katta ahamiyatga ega. Xususan, iqtisodiyotning energetika (energiosamaradorlik, qayta tiklanuvchi energiyaga qisman o'tish), chiqindilarni utilitatsiyalash (antropogen ta'sirni kamaytirish), “yashil texnologiyalar” (bio-, nano-, axborot-kommunikatsion texnologiyalar),



ekologik sof oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish (organik dehqonchilik), “yashil transport”, “yashil qurilish”, toza suv (resurslardan oqilona foydalanish), oʻrmon va uni muhofaza qilish sektorlari joriy etilgan taqdirda, natijalarga erishish darajasi bilan baholanadi.

Taʼkidlash joizki, “Yashil iqtisodiyot”dan farqli ravishda XX asr iqtisodiyotining anʼanaviy modeli boʻlgan “jigar rang” iqtisodiyot ishlab chiqarishning koʻp energiya ishlatuvchi va resurs sarflovchi modellari asoslangan.

Ekologik muammolar, tabiiy kapitalning tugab bitishi, chuchuk suvning, oziqovqatning, energiyaning yetishmasligi, qashshoqlikning keng quloq yozishi “jigar rang” iqtisodiyotning asosiy salbiy oqibatlarini hisoblanadi.

Xususan, xorijiy olim Y. Lyaskovskaya va K. Grigoreva “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish jarayoni texnologik rivojlanishdan voz kechishni anglatadimi degan savolga javob berishga qaratilgan boʻlib “barqaror rivojlanish”, inklyuziv rivojlanish”, “yashil” va “jigar” rang iqtisodiyot modellari koʻrib chiqishgan¹.

Zamonaviy iqtisodiyotning “jigar” rang rivojlanish modeli XX asrga hos boʻlgan va energoresurs sigʻimi yuqori boʻlgan anʼanaviy ishlab chiqarish nazarda tutilgan. Uning asosiy salbiy oqibatlarini ekologik muammolarini keskinlashishi, tabiiy boyliklarni samarasiz ishlatilishi, suv resurslar, oziq-ovqat va energiya tanqisligi bilan bogʻliq deb hisoblanmoqda.

“Yashil iqtisodiyot” boʻyicha bir qator rivojlangan Germaniya, Fransiya, Italiya, Gollandiya, Yaponiya va Xitoy kabi davlatlarning xalqaro tajribalar tahliliga koʻra, ushbu rivojlangan davlatlarda ham uzoq yillarga moʻljallangan aylanma iqtisodiyotga toʻliq oʻtish boʻyicha ulkan loyihalar, chora-tadbirlar, “Yashil iqtisodiyot”ni yaratish boʻyicha normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish, davlat investitsiya fondlarining tashkil etilishi, atrof-muhitni boshqarish va bu borada bir qator ishlarning jadal bilan olib borilayotganligini koʻrish mumkin.

MAVZUNING METODOLOGIYASI

“Yashil taraqqiyot”ga erishish uchun “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish va uni rivojlantirish lozim. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda Oʻzbekistonda iqlim oʻzgarishi taʼsirini kamaytirish va unga moslashish, “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish choralari jadallashtirish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy oʻsish modelini targʻib qilishga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Xususan, respublikada “yashil iqtisodiyot”ga oid bir qator normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, “Yashil makon” umummilliy loyiha va platformalari hamda “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish maxsus jamgʻarmalarining tashkil etilishi, Prezident farmoni bilan Tabiat resurslari vazirligi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi deb qayta nomlanishi, joriy yilning 2-iyun kuni Stokholmda Oʻzbekiston va Shvetsiya “yashil iqtisodiyot” boʻyicha innovatsiya, raqamlashtirish va axborot texnologiyalari sohasida hamkorlikning yoʻlga qoʻyilishi buning yaqqol misolidir.

TAHLIL VA NATIJADORLIK

Respublikada “yashil” iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, ekologik inqirozning salbiy taʼsirini yumshatish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktyabrdagi PQ–4477-son qarori bilan 2019–2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish strategiyasi tasdiqlandi.

2020-yilda koronavirus (COVID–19) pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan epidemiologik vaziyat sababli dunyo mamlakatlari qatori Oʻzbekiston Respublikasida ham ushbu Strategiyani jadal amalga oshirish imkoniyati cheklandi.

Koronavirus pandemiyasi va iqlim oʻzgarishi tufayli yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning saboqlari iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda yanada barqaror manbalar va yondashuvlarni qayta koʻrib chiqish, xususan, mamlakatda “yashil” iqtisodiyot va “yashil” iqtisodiy oʻsish boʻyicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlarni samarali tashkil etish, 2019–2030-yillar davrida “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini ishlab chiqish va bu borada davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining xalqaro tashkilotlar bilan oʻzaro hamkorlikdagi muvofiqlashtirilgan saʼy-harakatlarini taʼminlash Dasturini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keldi.

Shunga koʻra, 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, Oʻzbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga oʻtish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy oʻsishni taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishiga qaratilgan islohotlar samaradorli-

¹ Лясковская, Е.А., Григорьева К.А. Формирование “зеленой” экономики и устойчивост развития страны и регионов. // Вестник ЮУрГУ. Серия “Экономика и менеджмент”. – 2018. –Т. 12, № 1. – С. 15–22. БО! 10.14529/et180102.



gini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori va unga asosan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish va "yashil o'sish"ni ta'minlash dasturi qabul qilindi.

Mazkur dastur bilan, tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotning tabiiy ofatlar va iqlim o'zgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash, sanoatning "yashil" va kam uglerodli rivojlantirishini ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish va samarali "yashil" investitsiyalarni jalb qilish, "yashil" o'sish bo'yicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish, tashqi va ichki "yashil" moliyalashtirish oqimlarini ko'paytirish kabi ustuvor vazifa va yo'nalishlar belgilab berildi.

Xususan, dasturda O'zbekistonda issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga, sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan energiya sarfi hajmini, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foizga kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish, respublika o'rmon fondi zaxiralari ko'rsatkichini 90 million kub metrdan ortiqroqqa yetkazish, hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish vazifalari belgilab berilgan.

Yuqoridagi to'siqlarni bartaraf etish uchun atrof-muhit siyosatini amalga oshirish vositalarini to'g'ri ishlab chiqish muhimdir, shu o'rinda shunday tahdidlarni oldini olishda nafaqat birgina davlatning balki bu jamiyatdagi har bir tizimning va yashayotgan har bir insonning o'rni beqiyos.

Biror narsani qilaman deb, ikkinchi narsa yo'qotilmaydi. Masalan, uy quraman, deb daraxtlar ayovsiz kesib tashlanmaydi, texnologiyalarni ko'paytirish havo atmosferasini zaharli gazlar bilan to'ldirish evaziga amalga oshirilmaydi va h.k. Shu yo'l bilan barqaror taraqqiyotga erishish bugungi global masalalardan biridir.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun barcha sohalarda "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini faol joriy etish 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi vazifalari doirasidagi maqsadlardan biri. Ushbu maqsadga erishish bir vaqtning o'zida "yashil" iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash zaruratini ham ko'ndalang qo'yadi. OECD (2011), Cedefop (2009) kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarida inson resurslarini rivojlantirish iqtisodiyotni "yashillashtirish" uchun asos ekanligi ta'kidlanadi.



"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish bu – tabiiy resurslar (shu jumladan suv)dan nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o'rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim o'zgarishi kabi ekologik mua-



mmolarni hal etishda yordam beradi, yuqori darajadagi IT ko'nikmalariga ega bo'lgan aholi ulushining oshishi "yashil" bandlikning o'sishiga boshqa omillarga nisbatan ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlari tahliliga ko'ra 2019/2020-o'quv yilida tayyorlanadigan kadrlarning 5% dan ortig'i "yashil iqtisodiyot"ga mos kelgan bo'lsa, 2022/2023-o'quv yilida bu ko'rsatkich 30% dan ortiqni tashkil etgan.

Respublika oliy o'quv yurtlarida (shu jumladan, hududiy filiallarda) "yashil iqtisodiyot"ga o'tish uchun eng zarur mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash, jumladan biotexnologlar, muqobil (quyosh va shamol) energetika, shuningdek, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha muhandislar, iqlim xavfini baholash, bioiqtisodiyot bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, shu bilan birga energiya tejankor inshootlar va texnologiyalarni, jumladan sun'iy intellektni loyihalash, foydalanish va ishlab chiqarish bo'yicha kadrlar tayyorlash ham yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, bu borada professional ta'lim tizimida ham 2023–2024-o'quv yilidan boshlab, 30 ta kasb va mutaxassisliklarning ta'lim dasturlariga "yashil iqtisodiyot" ko'nikmalari, dual ta'lim shaklining o'quv dasturlariga atrof-muhitni muhofaza qilish va energiyadan oqilona foydalanish, chiqindilarni utilitatsiya qilish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik kompetensiyalarining kiritilishi hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlariga 6 soatlik "Professional ta'limda yashil iqtisodiyot" modulining joriy etilishi O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot"dan "yashil taraqqiyot" sari yo'llaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuni aytish mumkinki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, soha tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag'batlantiradi. "Yashil iqtisodiyot", asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o'sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta'minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyotga" o'tish iqlim o'zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktyabrdagi PQ–4477-son qarori bilan 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi;
2. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi;
3. Internet nashri: <https://zarnews.uz/post/yashil-iqtisodiyot-nima>
4. Internet nashri: <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/9449/file:///C:/Users/TEMA/Downloads/33.pdf>
5. Internet nashri: <https://aniq.uz/yangiliklar/yashil-iqtisodiyot-uchun-qanday-kadrlar-tayyorlanayapti>
6. https://dunyo.info/cyrl/site/inner/stokgolymda_innovatsiya_so%D2%B3asidagi_ozbekiston-shvetsiya_%D2%B3amkorligi_istiqbollari_mu%D2%B3okama_qilindi-t_

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.